



Tadqiqot.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR
2021**

BUXORO, UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SOHA LINGVISTIKASI:
TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT
INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI
HAMDA ISTIQBOLLARI
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari

Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**LINGUISTICS OF DIFFERENT
FIELDS:
PROBLEMS, SOLUTIONS AND
PROSPECTS OF LINGUISTICS
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Bukhara, November 10, 2021

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И
ПЕРСПЕКТИВЫ
ЛИНГВИСТИКИ И
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

Бухара, 10 ноября 2021 г.

© Tadqiqot.uz

“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

Mas`ul muharrir

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.Q.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.

© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021

3. Polat E.S. New pedagogical and information technology in education, Tutorial for students of pedagogical colleges, Moscow, Publishing center "Academy", 2000.
4. Dilfuza Sadulloyevna Fayozova. Basic principles of psychological and pedagogical support of talented children.-Academia an International Multidisciplinary Research Journal.Vol 10,Issue 11,November 2020. p.1410-1415
5. Dilfuza Sadulloyevna Fayozova. Comment of artistic means used in the novel "Days gone by".-Theoretical and Applied Science, 03 issue, 2020.-p.104-107
6. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119112> O'zbek tilini o'qitish metodikasi

O'quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari

Jo'rayeva Dilafro'z Raimovna *,
Qo'shayeva Nilufar Erkinovna **
10.5281/zenodo.5685084

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutqning aloqaviy xususiyatlaridan asosiysi bo'lgan nutqning to'g'riligi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Nutqning to'g'riligini ta'minlovchi omillar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Nazariy fikrlar keraklacha misollar bilan dalillangan. Misollar, asosan, davriy matbuotdan olingan. Shu jihatiga ko'ra maqola mavzusi dolzarb sanaladi.

Kalit so'zlar: *savodxonlik, nutqiy muloqot, nutqning to'g'riligi*

Har bir inson nutq madaniyati va u bilan bog'liq shartlarga to'la amal qilsagina nutq bilan bog'liq ko'zlagan maqsadiga erishadi. Nutqimiz ravon, tushunarli, tinglovchini o'ziga jalb qilishi uchun so'zlovchidan bir qator shartlarni bajarishni talab etadi. Bulardan eng asosiysi, nutqning aloqaviy sifatlarini to'laqonli egallashdir. Nutqning asosiy xususiyatlari bo'lgan mazkur me'zonlarga quyidagilar kiradi: to'g'rilik, aniqlik, soflik, mantiqiylik, ta'sirchanlik, obrazlilik, maqsadga muvofiqlik, jo'yallilik va h.k.

Hozirgi kun umumiy o'rta ta'lim ona tili yuqori sinf darsliklarida ham bunga alohida ahamiyat qaratilgan[2]. Manbada madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar misollar orqali tavsif va tahlil etilgan. Bizning mazkur maqolamiz darslikda berilgan "Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar" mavzusini nazariy va amaliy jihatdan to'ldirishga xizmat qila oladi.

To'g'rilik, albatta, nutqqa qo'yilgan birlamchi kommunikativ xususiyat sanaladi. Agarki, nutq to'g'ri bo'lmasa, aniq ham, maqsadga muvofiq ham, tushunarli ham bo'la olmaydi. Har bir kishi o'z tilining "madaniy sayqal topgan til" darajasiga erishishi uchun, avvalo, nutqini to'g'rilab olmog'i lozim. Nutqning to'g'riligi haqida rus tilshunosi V.G.Kostomarovning shunday yozadi: "To'g'rilik deganda, nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan me'yoriga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik me'yorlarini egallashini tushunish lozim"[1,24]. Demak, nutqning to'g'ri bo'lishi dastlab uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishidir. Nutqning to'g'ri bo'lishi, asosan, til me'yorlari (fonetik me'yor, leksik

* Buxoro shahar 35-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi tel: 93 140 76 77

** Buxoro shahar 35-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi tel: 93 653 67 76

me'yor, orfoepik me'yor, grammatik va sintaktik me'yor va b.)ga amal qilishni taqozo qiladi.

Yana shunday hollar mavjudki, so'z urg'usida bo'lgani kabi gap urg'usini ham to'g'ri ishlata bilmaslik ma'noning buzilishiga olib keladi. Masalan, *Katta-katta mevali daraxtlar* gapini olib ko'raylik. *Katta-katta mevasi bor daraxt* deyilyaptimi yoki daraxtning kattaligi haqida fikr yuritilyaptimi. Bu esa tinglovchiga qorong'i. Mazkur muammoni faqat gapga tushgan urg'u ochib bera oladi. Urg'u *mevasi* so'ziga tushsa va shu so'zdan so'ng ozroq to'xtam qilinsa, birinchi ma'no, *katta-katta* so'ziga va shu so'zdan so'ng to'xtam qilinsa, ikkinchi ma'no anglashiladi.

Nutq qurilishining grammatik shakllarini farqlay olish, so'zlarni mazmuniy bog'lanishlariga qarab joylashtirish grammatik me'yorlarni belgilar ekan, nutqning to'g'ri ifodalanishi uchun gap tuzish qoidalarini o'zlashtirish, o'zak va qo'shimchalar o'rtasidagi munosabatlarni, ega-kesim mosligini, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish yo'llarini yaxshi anglash lozim bo'ladi. Aks holda, nutqda kamchilik ro'y beradi.

Bu borada, yani kelishik shakllarining noo'rin qo'llanishi borasida professor N.Mahmudov quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Har bir kelishikning qo'llanishi bilan bog'liq aniq adabiy me'yorlar bor. Har bir kelishik alohida-alohida ma'no va vazifa uchun xizmat qiladi, lekin bu me'yorga zid o'laroq nutqda bir kelishikning o'rnida boshqasini qo'llash hollari uchraydi. Masalan, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi sheva vakillari nutqida o'rin-payt kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigini ishlatish adabiy nutqning to'g'riligini buzadi. *Toshkentga o'qimoq, poyezdga kelmoq* kabi holatlar me'yorning buzilishidir. *Senga bitta gapim bor, hali poyezdga aytaman* deyilsa, noto'g'ri holat, yani "Senga aytadigan gapimni senga emas, poyezdga aytaman" tarzidagi kulgili bir mazmun anglanishi mumkin".

Ko'pincha, qaratqich va tushum kelishigi shakllarini farqlamasdan qo'llash ham nutqning to'g'riligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada uslubiy xatolik yuz beradi. Masalan, *Latifjonni adasi bog'chaga etib qo'ydi*, misolidagi -ni (Latifjonni) qo'shimchasini qaratich kelishigi qo'shimchasi bilan almashtirib qo'llash gapning ma'nosini butunlay o'zgartirishi mumkin. Qiyoslang: *Latifjonni (aynan Latifjonni) adasi bog'chaga etib qo'ydi. – Latifjonning adasi (kimnidir) bog'chaga etib qo'ydi.* Ko'rinadiki, nutq to'g'riligining buzilishi nutq aniqligiga keskin ta'sir qilishi tabiiy. Xuddi shunday holatni, ya'ni noto'g'ri jumlaning nutq aniqligiga salbiy ta'sirini quyidagi misolda ham ko'rish mumkin: *Tilingni yoray deydi-ya, - deb mulla uzumdan paqqos tushirdi* (S.Ravshanov). Bu misolda grammatik me'yorga muvofiq chiqish kelishigini emas, tushum kelishigini qo'llash lozim edi, chunki paqqos tushirmoq "bitta ham qoldirmay oxirigacha yemoq" kabi ma'noni anglatadi, shu bois u tushum kelishigidagi so'zni talab qiladi[3,6]. Yuqorida aytganimizdek, nutqning aniqligi uning to'g'riligi bilan uzviy bog'liq (bu bo'yicha keyingi mavzuda kengroq to'xtalamiz). Qo'shimcha shakllarning farqlamay qo'llanishi -li va -lik doirasida ham uchraydi. Grammatik ma'nosiga ko'ra -li sifat yasovchisi belgiga egalik ma'nosiga ega: *rasmli, suvli, ilmli* va h.k. -lik affiksi, odatda, o'rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo'shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi: *buxorolik, tog'lik, shaharlik* kabi. Biroq ba'zan ularni farqlamasdan ishlatish uslubiy xatolikni keltirib chiqarishi

mumkinligini unutmaylik: guruchli-guruchlik, toshkentlik-toshkentli, pulli-pullik, tog`lik-tog`li va h.k. Bu juftliklardagi ikkinchi qo`llanishlarda me`yor buzilgan.

Otning ko`plik shakli *-lar* ning noo`rin qo`llanishlari ham ko`p uchraydi. Aslida *o`nta kitob, yuzta o`quvchi, birtalay qush, ancha odam* deyilganda ko`plik ma`nosi dona son va ravish bilan ifodalangan bo`ladi. Biroq ba`zida *o`nta kitoblar, ancha odamlar, bir talay qushlar, yuzta o`quvchilar* tarzidagi qo`llanishlarga ham duch kelamiz. Bu esa nutqning mantiqiyiligiga putur yetkazadi. Masalan: *Respublikamizni 130 dan ortiq davlatlar tan olib, 50 dan ortiq mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar o`rnatilgan* (“Qorovulbozor tongi”, 2015-yil, sentabr soni.).

Umuman, *-lar* qo`shimchasini noo`rin yoki ortiqcha qo`llashdan saqlanish kerak. Aks holda uslubiy me`yorga putur yetishi tayin.

Sintaktik me`yor? ya`ni gap bo`laklarining noo`rin qo`llanishi ham nutq to`g`riligiga ta`sir ko`rsatishi mumkin. Jumladan, *yurtimizning bilimli yoshlari* deyish o`rniga *bilimli yurtimizning yoshlari* shaklida qo`llanishi uslubiy g`alizlikni keltirib chiqaradi.

Tilimiz so`z va qo`shimcha shakllarga boy. Mana shu ona tilimiz xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlab olish, ularni o`rinli ishlatish, talaffuz ma`yorlariga amal qilish nutq madaniyatining asosiy talablaridan biridir. Biroq afsuslar bo`lsinki, nutqning to`g`riligi buzilgan hollar, ayniqsa, imloviy xatoliklari mavjud jumlar davriy matbuotda ko`p kuzatilmoqda. Bu holni hech bir asos bilan oqlab bo`lmaydi. Davriy matbuotda kuzatilgan ba`zi bir xatoliklardan namunalar keltirib o`tishni joiz bildik.

1. Ammo ko`p qimmatli vaqtimiz to`ylarga borish, yig`gan-terganimizni to`yona yoki sovg`a olishga sarflayotganimiz farovon hayotimiz (aslida – hayotimizni) bir qadar suiiste`mol qilish emasmi? (“Qorovulbozor tongi”, 2015 – yil, 17-25- sentabr soni).

2. Hozirgi (aslida – hozirgi) kunda ham ko`plab dasturlarni ovoz orqali boshqarish imkoniyati mavjud (“Parvona”, 2008-yil, 24-iyun soni).

3. Aravada (aslida – aravaga) o`t yuklab, daladan qaytayotgan edim. (“Parvona”, 2008-yil, 24-iyun soni).

4. Bunaqada o`zingizga javr (aslida – jabr) qilasiz-ku?! (“Darakchi”, 2001-yil, 6-sentabr soni).

5. Ishtirokchilarga o`z chiqishlari shaklini imkon qadar erkin tanlashlari uchun imkoniyatlar (aslida – imkoniyat) yaratildi. (“Darakchi”, 2001-yil, 6-sentabr soni).

6. Barchamiz ma`sulmiz (aslida – mas`ulmiz). (Sarlavhadagi xatolik: “Galaosiyo ovozi”, 2009-yil, 1-yanvar soni).

7. Zero, yurtboshimiz takidlaganidek (aslida – ta`kidlaganidek), “... bugungi kunda faqat ijtimoiy jihatda (aslida – jihatdan) yaxshi ta`minlangan harbiy xizmatchilar, shu bilan birga, puxta tayyorgarlikga (aslida – tayyorgarlikka) ega bo`lgan, kuchli, har tomonlama ta`minlangan Qurolli Kuchlarga davlatimiz xafsizligini (aslida – xavfsizligini) ta`minlashga qodir bo`ladi”. (“Buxoro adabiyoti va san`ati”, 2016-yil, 1-yanvar soni).

8. Yangi–yilingiz (aslida – Yangi yilingiz) muborak bo`lsin, aziz yurtdoshlar! (“Buxoroyi sharif”, 2016-yil, 1-yanvar soni).

9. Odamzot (aslida – odamzod) nima maqsadda farzandi dunyoga kelgach, borini berib bo'lsa-da, uni bekamu-ko'st (aslida – bekamu ko'st) voyaga yetkazadi? (“Kelajak ovozi”, 2014-yil, 8-son).

Xullas, nutqning to'g'riligi deganda, talaffuz me'yorlariga e'tibor berish, grammatik me'yorga rioya qilish, asos bilan qo'shimchalar imlosiga, qo'shimchalarni o'z o'rnida qo'llash, ularni to'g'ri tanlash, gap bo'laklarini to'g'ri shakllantirishga e'tibor berish tushuniladi.

Adabiyotlar:

- 1.Kostomarov V.G. Kultura rechi i stil. – M.,1960. 24-b.
- 2.Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent – 2018.
3. Odilov Y. Til – millatning bosh belgisi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2015. 10-son. 6-b.
4. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>
5. ДН Юлдашева. Мактабда она тили таълими муаммолари. ВухDU ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).–Вухоро 3 (75), 268-277
6. Тўева Зулфия Нозимовна, Юлдашева Дилором Нигматовна. БАЁН ВА УНИНГ ТУРЛАРИ ҲАҚИДА. «Сўз санъати» халқаро журнали (ISSN: 2181-9297 DOI: 10.26739/2181-9297 www.tadqiqot.uz) –2021, 1-сон, 4-жилд. – В.:137-146. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/395>
7. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119112> O'zbek tilini o'qitish metodikasi

Tasks of effective use of the uzbek language

Kurbonov Abdujalil Maxmutovich*
10.5281/zenodo.5685088

Annotation.This article discusses the existing mother tongue education had become obsolete. The article talks about theoretical, educational and practical issues related to language and literature. Also the article emphasizes the type of applied philological activity has been formed and is developing rapidly.

Key words: *education, globalization, effectiveness, competence, philology, linguistic research*

President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev addressed a ceremony marking the 30th anniversary of the official status of the Uzbek language.

“It is well known that the native language is a solid foundation of the nation's spirituality. As our great enlightened ancestor Abdullah Avloni noted, the mirror life of every nation that exists in the world is its national language and literature.

In this sense, any state that aims to take a worthy place in the world community, first of all, strives to preserve and develop the national language and culture of its people.

* English language teacher, Bukhara engineering technological institute kurbonov_70@inbox.ru

МУНДАРИЖА

Rasmiy ochilish. Tabriklar		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	6
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	8
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	9
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	10
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	11
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	12
Yalpi majlis ma’ruzalari		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	15
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	17
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	22
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	25
<i>Мўратбек В.Қ.</i>	<i>Professor Q.Jўbanov уеңбектериндеги сөзтаңым неғиздері (Q.Jўbanov сөзтаңымындағ ы лексикология мәселелері)</i>	27
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	36
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O'zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	40
1-sho'ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o'zbek tillarida so'zlarning o'zaro tobe bog'lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	42
<i>Akhmedov A.R. Po'latova S.M.</i>	<i>O'zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	46
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	50
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O'zbek tili milliy korpusi uchun so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni teglash masalasig oid</i>	55
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	61
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	65
<i>Jo'rayeva D.R. Qo'shayeva N.E.</i>	<i>O'quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	68
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	71
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg'iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	75
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o'rni</i>	79
<i>Мўратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тіл арқылы таңым білу(Аймақтық лексика неғизінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	84
<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	88

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	93
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybyys saykestigi turaly</i>	97
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma’naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	102
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	104
<i>To’yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o’quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	111
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	116
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	121
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	125
2-sho’ba. O’zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So’z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	131
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	136
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug’atlari xususida</i>	139
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	141
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	146
<i>To’rayeva Sh.</i>	<i>So’z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	150
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	153
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so’z birikmalarining tibbiyotda qo’llanilishi</i>	157
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	161
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тонина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	164
<i>Navro’zova M.G’.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	172
3-sho’ba. Tibbiyot ta’limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazarlar</i>	174
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм</i> <i>Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	179
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	182
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	185
<i>G’aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	190
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiqlar haqida</i>	195
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	200
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O’zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo’llanilishi</i>	204
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	207
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	211
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag’ishlangan “qonuni bositiy” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	214
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	218

	<i>qo'llanilishi</i>	
4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi		
<i>Yusupova D.Y.</i>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	222
<i>Қалиев Е.М.</i>	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	228
<i>Yuldasheva M.M.</i>	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	232
5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi		
<i>Ashurbayeva R.Q.</i>	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	237
<i>Istamova S. I.</i>	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	241
<i>Qobilova A.B.</i>	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	245
<i>Toshtemirova S.</i>	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	248